

PIRLS XALQARO TADQIQOTIDA O'ZBEKISTONNING ISHTIROKI VA NATIJALAR TAHLILI*Eshmatova Umida Abdupayez qizi**Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika kafedrasi magistranti***Annotatsiya:**

Mazkur maqolada PIRLS xalqaro boshlang'ich sinf o'quvchilar bilimini baholash tadqiqoti va unda ilk bor O'zbekiston ishtiroki hamda uning natijalari tahlili haqida artoflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'quvchi, tadqiqot, baholash, tizim, tahlil, natija, bilim.

Abstract:

In this article, the PIRLS international primary school students' knowledge assessment study and the participation of Uzbekistan in it for the first time and the analysis of its results are discussed in detail.

Key words: PIRLS, student, research, evaluation, system, analysis, result, knowledge.

Kirish.

Bugungi rivojlanib borayotgan zamon talablariga javob bera oladigan milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida yurtimiz ta'lim tizimida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF 5712-sonli Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kishiga erishish va xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish orqali o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishlarda fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan[1]. Buning boshlanishi sifatida 2018-yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va O'zbekiston o'rtasida xalqaro bilimlarni baholash dasturi (Programme for international student assessment PISA)da ishtirok etish to'g'risida kelishuv imzolandi. Quyida xalqaro dasturlardan biri bo'lgan PIRLS haqida mulohaza yuritiladi.

PIRLS- xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va ta'lim berishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi[8].

Ushbu dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan xalqaro dastur hisoblanadi. PIRLS xalqaro markazi Bo'ston kollejidagi TIMSS va IEA tashkilotlarining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda ish olib boradi[4]. Tadqiqot dasturida o'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash faqatgina o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki otionalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholashda ushbu dastur muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Uning ta'rifiga o'qish savodxonligi - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hisoblanadi.

Adabiyot tahlili.

Mavzuyimiz yuzasidan adabiyotlar va ilmiy ishlarni o'rganar ekanmiz, ulardagi muammolar va nazariy faktlarni tahlil etishga harakat qildik. Jumladan; O'qitish metodikasida mustaqil ishlar V.V.Davidov, N.G.Dayri, M.A.Danilova, B.P.Esipov, N.A.Menchinskiy, I.T.Ogorodnikov kabi pedagog-psixologlar tomonidan didaktikaning asosiy konsepsiyalaridan biri sifatida qaralsa, V.K.Buryak, L.V.Jarovalar mustaqil ishni metod sifatida talqin qiladi. B.P.Esipov, M.M.Moro, T.I.Shamalovalar mustaqil ishlar o'quv faoliyatining shakli deya ta'kidlansa, P.I.Pidkasiy esa o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatining vositasi sifatida ko'rsatadilar. Taniqli ruhshunos olimlar: A.N.Leontev, P.Y.Galperin, I.A.Zimnya, D.B.Elkonin, N.Boymurodovlar ishlab chiqqan mustaqil faoliyatni shakllantirishning psixologik konsepsiyasida mustaqil ishlarga shaxsning bilish faolligini oshiruvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

Bundan tashqari "Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish" mavzusida sermaxsul izlanishlar olib borgan SH.Sariyev, "Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish", S.Matjonov, X.G'ulomova, M.Suyunov, H.Bokiyevalar matnni o'qib tushunishning metodik asosini ishlab chiqqib amaliyotga tadbiiq etganlar. H.S.Bakiyeva esa O'zbekistonda PIRLS tadqiqotini o'tkazish borasida 4-sinf "O'qish" darsligini asos qilgan holda mavzulastirilgan topshiriqlar jamlanmasini ishlab chiqqib amaliyotga tadbiiq qildi.

Mavzuyimiz yuzasidan nazariy g'oyalarini ishlab chiqishda respublikamizning mutaxassis olimlari, pedagoglari va metodistlari, jumladan, S.Matjonov, H.X.Bakiyeva, X.G'ulomova, SH.Yo'ldosheva, G.Xolboyeva lar tomonidan yaratilgan darsliklar va ilmiy-tadqiqotlar asos bo'lib xizmat qildi.

Metodologiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2020-yil 2-fevral kuni jahon miqyosida "O'qish va uni tushunish sifati" bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot dasturini o'rganish bo'yicha ta'lim muassalariga ko'rsatma berdi. 2021-yildan PISA(Programme for International Student Assessment) va PIRLS(Progress in International Reading and Literacy Study) nazorat dasturida ishtirok etish rejalashtirildi va unga tayyorgarlik ko'rish ishlari boshlab yuborildi. Bajarylgan ishlar natijasida ta'lim sohamizdagi ko'plab kamchiliklar aniqlandi:

Moddiy texnik-bazalardagi kamchiliklar, amaldagi boshlang'ich sinf darsliklari va mavzular orasidagi mutanosibliklar, bolalarning bilish kompetensiyasidagi amal qilinishi lozim bo'lgan me'yorlarning buzilganlik holatlari shular jumlasidandir. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi pedagogik fanlar qatorida o'quvchilarga boshlang'ich til asoslarni o'rgatish, adabiy ta'lim orqali borliq va jamiyat haqida tushuncha berish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish kabi amaliy ishlar nazariyasini ishlab chiqadi.

Asosiy qism.

Tadqiqotimiz doirasida asosiy e'tibor o'quvchilarda tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish. Bunda o'quvchilar quyidagi darajalar yordamida baholanadi.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi: Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi. Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi. O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi. Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi[7].

Bu dastur yillar davomida o'z safini kengaytirib bormoqda. Bir yil davomi davomida malakatimiz hududidagi ta'lim muassasalarida tayyorgarlik ishlari tizimli ravishda olib borildi. Nihoyat, 2021 yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdi. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021 yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholadi. Bu tadqiqotda O'zbekiston 2021-yildan oldin qatnashmagan. Tadqiqotda 2016-yilda 1-sinfga borgan O'quvchilar qatnashadi. Bundan oldin UNICEF tomonidan o'tkazgan tadqiqotda 4-sinf O'quvchilarining yarmidan ko'prog'i o'qigan matnini tushunmasligini ko'rsatgan edi[7].

Natijalar:

O'zbekiston Respublikasining PIRLS tadqiqotida ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qildi. O'zbekiston PIRLS dasturi uchun qabul qilingan o'rtacha balldan (500) sezilarli past (437 ball) natija qayd qilgan va 57 mamlakat orasida 49-O'rinni egalladi[6].

O`rin	Davlat	O`rtacha ball
1	Singapur	587
2	Irlandiya	577
3	Gonkong	573
4	Rossiya	567

5	Shimoliy Irlandiya	566
9	Finlyandiya	549
38	Qozog‘iston	504
49	O‘zbekiston	437
55	Misr	378
56	Marokash	372
57	Janubiy Afrika	288


1-jadval: Tadqiqotda qatnashgan ayrim davlatlarning O‘rinlari va O‘rtacha ballari:

O‘zbekistonlik o‘quvchilarning 70%i quyi va 34%i o‘rtacha natijalarni qayd etishgan, O‘quvchilarning 7%i yuqori natijalarga erisha olgan, rivojlangan darajasiga erishgan o‘quvchilar esa yo‘q (2-jadval).

Ma‘lumki, yurtboshimiz tomonidan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ulkan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar amalga oshirilmogda. PIRLS xalqaro tadqiqoti jarayonida ham aynan shu sohaga e‘tibor qaratildi. Ota-onalarning kitob o‘qishga bo‘lgan munosabati ham o‘quvchilarning natijalariga ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda “kitob o‘qishni juda yoqtiradigan” ota-onalarning farzandlari o‘rtacha 449 ball, “kitob o‘qib turadigan”larning farzandlari 431 ball va “kitob o‘qishni yoqtirmaydigan”larning farzandlari 401 ball natija ko‘rsatishgan[7]..

Tadqiqotda, shuningdek, maktabga chiqishdan oldin oddiy O‘qish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘quvchilar 4-sinf oxiriga kelib maktabga chiqishdan oldin o‘qish yoki yozishni bilmagan o‘quvchilarga nisbatan yuqoriroq natijalar ko‘rsatishi qayd etilgan. Masalan, O‘zbekistonda maktabdan oldin yaxshi o‘qiy olgan o‘quvchilar bilan maktabgacha o‘qishni bilmagan o‘quvchilar natijalari o‘rtasidagi farq 36 ballni tashkil qilgan.

Shuningdek, tadqiqotda maktabdagi resurslar, tartib-intizom va xavfsizlik ham o‘quvchilarning natijalariga ta‘sir qilishi aniqlangan. Tadqiqotda qatnashgan O‘zbekistonlik o‘quvchilarning 49%i u yoki bu darajada resurslar yetishmasligi mavjud maktablarda, 35%i tartib-intizom bilan o‘rtacha yoki jiddiy muammolar bor maktablarda o‘qishi qayd etilgan.



2-jadval O`qish ko`nikmalari bo`yicha yuqori darajaga (550 ball) erishgan o`quvchilar ulushi

Bundan tashqari, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkazildi. O'quvchilar so'rovnomasi orqali ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, o'quv faniga munosabat, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar to'plangan bo'lsa, o'qituvchilar so'rovnomasi orqali ular haqidagi ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga olgan savollar taqdim etildi. Ishtirokchilar shaffof va obyektiv ravishda o'z javoblarini taqdim etishdi.

Ota-onalar so'rovnomasida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilinishidan avvalgi ko'nikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va o'qishga munosabati, oiladagi ijtimoiy ma'naviy muhit o'rganildi. Maktab jamoasi bilan olib borilgan so'rovnoma orqali maktab quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiy resurslar, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o'rganilib, tahlil etildi.

XULOSA

Olib borayotgan ilmiy ishimizga oid adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlari, elektron ta'lim resurslarini o'rganish va ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida matnni o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar yetarli darajada tatbiq etilmagan, ularda qo'llanishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalar, jumladan PIRLS dasturidan foydalanish orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari ilmiy-

uslubiy jihatdan asoslanmaganligini ko'rsatadi. Ushu tadqiqotda erishgan dastlabki natijalarimiz kelgusida ta'lim jarayonini jumladan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'qish va tushunish malakalarini yanada chuquqroq tadbiiq etishga zamin hozirladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, agar boshlang'ich ta'limda xalqaro tajribalardan, xususan, PIRLS xalqaro baholash dasturi xususiyatlari va imkoniyatlari aniqlanib, dars mashg'ulotlar tuzilmalari va ishlanmalari ishlab chiqilsa, u holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qib tushunish kompetentligi va bilim olishga, o'rganishga, badiiy adabiyotga oshno bo'lishga, mustaqil fikrlashga bo'lgan faolligi oshadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF 5712 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" gi 2018-yil 8-dekabrda 997 -sonli qarori.
3. Adasheva N. K "Pirls xalqaro tadqiqotlarini bizning o'quvchilarimizga foydali tomonlari" JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATION -2022
4. Sidorova Galina Aleksandrova , "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish - inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar , Rossiya ta'lim akademiasining ta'limini rivojlantirish strategiyasi instituti, ta'lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogik fanlar nomzodi. E-mail. Centeroko@mail.ru
5. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil. 92 b.
6. <http://www.tdi.uz/uz>Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/17/pirls/>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/PIRLS>